



HUDUDLARDA TURISTIK-REKREATSION ZONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI

Umarova Mahliyo

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0002-3134-0852

mahliyoumarova9893@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada turistik-rekreatsion zonalar samaradorligining nazariy va metodologik asoslari tahlil qilingan. Samaradorlik tushunchasining iqtisodiy mazmuni mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar asosida yoritib berilgan. Resurslardan oqilona foydalanish va natijadorlik o‘rtasidagi nisbat asosiy mezon sifatida asoslangan. Turistik-rekreatsion zonalar faoliyatini baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy ko‘rsatkichlarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, samaradorlikni aniqlashda turistlar oqimi, investitsiya qaytimi va bandlik darajasi muhim indikatorlar sifatida talqin qilingan. Ilmiy yondashuvlar asosida samaradorlikni kompleks baholash zarurati asoslangan. Turistik zonalarning hududiy rivojlanishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari samaradorlikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv barqaror turizm rivojlanishini ta’minlashga ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: samaradorlik, turistik-rekreatsion zona, iqtisodiy natijadorlik, resurslardan foydalanish, investitsiya, infratuzilma, bandlik, hududiy rivojlanish, turizm iqtisodiyoti, barqarorlik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТУРИСТИЧЕСКИХ И РЕКРЕАЦИОННЫХ ЗОН В РЕГИОНАХ

Умарова Махлиё

*Международный университет туризма и
культурного наследия «Шелковый путь»*

Аннотация. В статье проанализированы теоретические и методологические основы эффективности туристско-рекреационных зон. Экономическое содержание понятия эффективности раскрыто на основе отечественных и зарубежных научных источников. Обосновано соотношение результатов и использованных ресурсов как ключевой критерий оценки. Определена значимость экономических, социальных и инфраструктурных показателей при оценке деятельности туристско-рекреационных зон. В качестве основных индикаторов рассмотрены туристский поток, инвестиционная отдача и уровень занятости. Подчёркнута необходимость комплексной оценки эффективности. Раскрыта роль туристских зон в региональном развитии. Результаты исследования направлены на совершенствование механизмов повышения эффективности. Представленный подход способствует обеспечению устойчивого развития туризма.

Ключевые слова: эффективность, туристско-рекреационная зона, экономическая результативность, использование ресурсов, инвестиции, инфраструктура, занятость, региональное развитие, экономика туризма, устойчивость.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF TOURIST AND RECREATIONAL ZONES IN THE REGIONS

Umarova Mahliyo

*"Silk Road" International University
of Tourism and Cultural Heritage*

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations of efficiency in tourist-recreational zones. The economic essence of efficiency is analyzed based on national and international academic sources. The ratio between outputs and utilized resources is substantiated as a key evaluation criterion. The importance of economic, social, and infrastructural indicators in assessing tourist-recreational zone performance is highlighted. Tourist flow, investment return, and employment level are identified as major indicators of efficiency. The necessity of a comprehensive assessment approach is emphasized. The role of tourist zones in regional development is clarified. The findings contribute to improving mechanisms for enhancing efficiency. The proposed approach provides a scientific basis for sustainable tourism development.*

Keywords: *efficiency, tourist-recreational zone, economic performance, resource utilization, investment, infrastructure, employment, regional development, tourism economy, sustainability.*

Kirish.

Turistik-rekreatsion zonalar faoliyatini baholashda "samaradorlik" tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlashtirish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda samaradorlik resurslar va natijalar nisbatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv turizm sohasida ham qo'llanilib, hududiy resurslardan foydalanish darajasini kompleks baholash imkonini beradi. Shu bois, turistik-rekreatsion zonalar samaradorligini aniqlash va uni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur maqolada turistik-rekreatsion zonalar samaradorligining nazariy asoslari hamda uni baholash mezonlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili.

Mazkur tadqiqot doirasida samaradorlik tushunchasining nazariy asoslarini yoritishda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlariga tayanildi. Xususan, iqtisodiy samaradorlikning klassik talqini Samuelson va Nordhausning (2022) "Economics" asarida bayon etilgan yondashuv asosida tahlil qilinadi. Menejment nuqtayi nazaridan samaradorlik masalasi Druckerning (2015) "Management: Tasks, Responsibilities, Practices" asaridagi ilmiy qarashlar orqali o'rganiladi.

Ishlab chiqarish samaradorligini o'lchashning nazariy-uslubiy asoslari Farrellning (1957) "The Measurement of Productive Efficiency" maqolasi doirasida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni aniqlash va baholash masalalari Abdulkarimovning (2012) "Korxona iqtisodiyoti" hamda "Ichki savdo iqtisodiyoti" asarlari asosida tahlil etiladi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlar qatorida Toshtemirova (2024) ning samaradorlikka oid ilmiy maqolasi, Akbarova va Xalilov (2025) tomonidan yoritilgan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari haqidagi tadqiqot, shuningdek, Qodirov va hammualliflar (2024) tomonidan chop etilgan "Iqtisodiyot nazariyasi" darsligidagi yondashuvlar ham ilmiy tahlil obyekti sifatida tanlab olindi.

Demak, mazkur maqolada aynan yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning asarlari asosida samaradorlik tushunchasining nazariy va uslubiy jihatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishi mobaynida qiyosiy taxlil va tizimli qiyoslash, ekspert baholash kabi ko'plab usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Turistik-rekreatsioon zonalarining o'rni va ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda, jumladan, davlat muhofazasidagi milliy bog'lar, madaniy resurslar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, tristik infratuzilma va turistik salohiyatga ega tabiiy xududlarni zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga alohida etibor qaratilmoqda. "Jahon turizm bozoridagi kuchli raqobat sharoitida O'zbekistonga xorijiy turistlarni keng jalb qilish, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish, turizm namoyishi obyektlaridan samarali foydalangan holda hududlarni o'zaro bog'lovchi turizm xizmatlarini yanada kengaytirish, sohada yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek, respublika turizm salohiyatini xorijiy mamlakatlarda manzilli targ'ib qilish" (Farmon, 2024) asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Turistik-rekreatsioon zonalarining madaniy hamda tabiiy resurslaridan ratsional foydalanish masalalarini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotimizda mavzuning muhim atamalaridan bo'lgan "samaradorlik" iborasiga ilmiy adabiyotlarda mavjud ta'riflarga tayangan holda mazmunini yoritib berishni maqsadga muvofiq deb, topdik.

"Samaradorlik" tushunchasiga quyida iqtisodiyot, menejment va ta'lim adabiyotlarida keng ko'lamda qo'llaniladigan tariflarni keltirib o'tamiz.

Samuelson & Nordhaus tomonidan yozilgan "Economics" darsligida "Samaradorlik" tushunchasiga quyidagicha tarif berilgan. Samaradorlik – bu resurslardan foydalanish natijasida olingan natijaning (output) sarflangan resurslarga (input) nisbati. Uni quyidagi formulada ham ko'rishimiz mumkin (1.1-formula).

$$\text{Efficiency} = \frac{\text{Output}}{\text{Input}}$$

1.1-formula. Resurslardan foydalanish samaradorligini baholash

(Samuelson & Nordhaus, 2022)

Bu yerda:

Output – olingan natija (ishlab chiqarilgan mahsulot, xizmat, foyda va h.k.)

Input – sarflangan resurslar (mehnat, kapital, yer, vaqt va boshqalar)

Peter Drucker (2015) tomonidan yozilgan "Management: Tasks, Responsibilities, Practices" kitobida samaradorlik menejment faoliyati samaradorligi orqali aniqlanadi. Ya'ni unda keltirilishicha, samaradorlik – tashkilot maqsadlariga erishishda resurslardan oqilona va tejankor foydalanish darajasi.

Farrell, (1957) tomonidan yozilgan "The Measurement of Productive Efficiency" maqolasi samaradorlikni nazariy jihatdan o'lchash usullarini ishlab chiqqan klasik akademik manba hisoblanadi. Unga asosan, ishlab chiqarish samaradorligi – ishlab chiqarish jarayonida olingan mahsulot hajmining unga sarflangan mehnat, kapital va boshqa resurslarga nisbati bilan ifodalanadi.

O'zbek olimlari va tadqiqotchilari tomonidan samaradorlik tushunchasiga berilgan tariflarni quyida keltirib o'tamiz. Toshtemirova (2024) o'zining 2024-yilda chop etilgan "Samaradorlik: muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili" ilmiy maqolasida keltirilishicha, samaradorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida cheklangan resurslardan oqilona foydalanish orqali maqsadlarga erishish va resurslarning natijadorligini maksimal darajada oshirishdir.

Akbarova (2025), Xalilovlar tomonidan yozilgan "Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari" maqolasida ham samaradorlik tushunchasiga tarif keltirib o'tilgan. Iqtisodiy samaradorlik – resurslardan foydalanish natijasida erishilgan natijalar va ularning qiymatiga qarab subyekt faoliyatining samaradorlik darajasini o'lchovchi nazariy tushuncha.

2012-yilda Abdulkarimov (2012) tomonidan yozilgan “Korxona iqtisodiyoti” nomli darslikda samaradorlik tushunchasi iqtisodiyotda resurslardan foydalanish orqali natijalarga erishish muammolari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Samaradorlikni ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqot qilish zarurati ta’kidlangan.

2024-yilda chop etilgan “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligi Qodirov, Xashimov, Muminov, Ortiqov, Rejapovlar (2024) tomonidan yozilgan bo’lib, unda samaradorlik tushunchasiga aniq tarif keltirilgan. “SAMARADORLIK – xo’jalik faoliyatining samaradorlik darajasini bildiruvchi ko’rsatkichlardan biri bo’lib, u ma’lum vaqt davomida ... ishlab chiqarishning foydalililigi ko’rsatadi”.

Abdulkarimovning (2007) 2007-yilda chop etilgan “Ichki savdo iqtisodiyoti” nomli kitobida iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning quyidagi formulasini ko’rishimiz mumkin (1.2-formula).

$$\text{Samaradorlik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Foyda}}{\text{Sarflangan xarajat}}$$

1.2-formula. Iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti (Abdulkarimov, 2007)

Ushbu formulani so’z bilan ifodalaydigan bo’lsak, iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti foydani sarflanga xarajatlarga nisbati orqali aniqlanadi.

Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib, turistik-rekreatsion zonalar samaradorligini turistlar oqimi, xizmatlar hajmi, bandlik darajasi, investitsiya natijadorligi va hududiy iqtisodiy foyda ko’rsatkichlari orqali baholash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar tahlili asosida rekreatsiya, turistik-rekreatsion zona va samaradorlik tushunchalarining o’zaro uzviy bog’liqligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, turistik-rekreatsion zonalar samaradorligini oshirish hududiy resurslardan oqilona foydalanish, infratuzilma rivoji, xizmatlar sifati va iqtisodiy natijadorlikni kompleks baholash orqali amalga oshirilishi lozim.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko’rsatadiki, turistik-rekreatsion zonalar mamlakatimizda turizm sohasini barqaror va tizimli rivojlantirishning muhim institutsional mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ularning samaradorligini ta’minlash nafaqat turistik resurslardan oqilona foydalanish, balki hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda xizmatlar sifati oshirish bilan bevosita bog’liqdir. Ilmiy manbalarda keltirilgan “samaradorlik” tushunchasining iqtisodiy mazmuni turistik-rekreatsion zonalar faoliyatini baholashda natija va resurslar nisbatini kompleks ko’rsatkichlar tizimi orqali aniqlash zarurligini asoslaydi.

Shu nuqtai nazardan, turistik-rekreatsion zonalar samaradorligini turistlar oqimi, bandlik darajasi, investitsiya qaytimi, hududiy daromadlar o’sishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir ko’rsatkichlari asosida integrallashgan holda baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv hududiy turizmni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, milliy turizm tizimining raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Aumepamypa / Reference:

- Abdulkarimov B.A. (2007) “ICHKI SAVDO IQTISODIYOTI”.
https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_005fd099eba8c04.pdf?utm_source.
 Abdulkarimov B.A. (2012) Korxona iqtisodiyoti darslik, –T.: “Fan”, https://lib.renessans-edu.uz/files/books/2024-12-03-06-58-20_73a8f693831de117ed8d2df29329c853.pdf.
 Akbarova B. Sh. va Xalilov J. (2025) “Iqtisodiy samaradorlik ko’rsatkichlari”.
<https://scientific-jl.com/uuc/article/view/14820>.

Drucker, P.F. (2015) *Management: Tasks, Responsibilities, Practices*. Harper & Row.
<https://ia801407.us.archive.org/1/items/in.ernet.dli.2015.137046/2015.137046.Management-Tasks-Responsibilities-Practices.pdf>.

Farmon (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-9-sonli farmoni.

Farrell, M. J. (1957). *The Measurement of Productive Efficiency*.

Journal of the Royal Statistical Society.
<https://doi.org/10.1093/oso/9780195072181.001.0001>.

Qodirov A., Xashimov P.Z., Muminov N.G., Ortiqov N.Y., Rejapov X.X. (2024) *IQTISODIYOT NAZARIYASI DARSLIK*. <https://api.scienceweb.uz/storage/publication>.

Samuelson, P.A., & Nordhaus, W.D. (2022) *Economics*. McGraw-Hill Education.
<https://archive.org/details/economics0000samu>.

Toshtemirova M. Sh. (2024) "Samaradorlik: muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili".
<https://pedagoglar.org/index.php/04/article/view/5396>.